

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

## NAVOIYSHUNOSLIKDA SADRIDDIIY AYNIIY O‘RNI

**Maftuna Shomurodova**

*O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti  
mustaqil tadqiqotchisi*

**Annotatsiya:** *Navoiyshunoslik, xususan, o‘zbek navoiyshunosligi ma’lum bir tarixga ega. Bunda atoqli olim Sadridin Ayniyning o‘ziga xos o‘rni mavjud. Maqolada olimning Alisher Navoiy hayoti va ijodini yoritishdagi benazir uslubi, ibratli sa’y-harakatlaridan bahs yuritildi. Ayniyning matnshunosligi hamda mutafakkir shoirning forsiy merosi to‘g‘risidagi qarashlariga ham e’tibor qaratildi.*

**Kalit so‘zlar:** *navoiyshunoslik, matn, tarjima, davr, uslub, tahlil, talqin, shaxsiyat, shoir.*

**Аннотация:** *Навоиведение, в частности узбекское Навиоведение, имеет определенную историю. Особая роль в этом принадлежит выдающемуся ученому Садриддину Айни. В статье обсуждается поучительный стиль ученого в освещении жизни и творчества Алишера Навои. Внимание было уделено текстологическим исследованиям Айни, а также взглядам поэта-мыслителя на персидское наследие.*

**Ключевые слова:** *нарратология, текст, перевод, эпоха, стиль, анализ, интерпретация, личность, поэт.*

**Abstract:** *Navoi studies, in particular, Uzbek Navoi studies, has a certain history. The famous scientist Sadridin Aini has a special role in this. The article discussed the unique style and exemplary efforts of the scientist in illuminating the life and work of Alisher Navoi. Attention was also paid to Aini's textual studies and the thinking poet's views on the Persian heritage.*

**Key words:** *narratology, text, translation, era, style, analysis, interpretation, personality, poet.*

Navoiyshunoslik mutafakkir shoirning o‘z davridan boshlangani ma’lum. Ammo XX asr navoiyshunosligining tamal toshini qo‘yuvchilardan biri Sadridin Ayniy, desak hech mubolag‘a bo‘lmaydi. Zero, 20-40-yillar vaqtli matbuot sahifalarida Abdurauf Fitrat, Vadud Mahmud va Olim Sharafiddinov kabi yetuk olimlarning Navoiy haqidagi u yoki, bu mavzuga oid ixcham maqolalari chiqib turgan. Biroq Sadridin Ayniy o‘zbek adabiyotining daho shoiri Alisher Navoiy hayoti, ijodi va shaxsiyatini keng miqyosda o‘rgandi. Natijada, navoiyshunosning bu davr davomida tinimsiz olib borgan izlanishlari “Alisher Navoiy” nomli salmoqli monografiyasini yaratish bilan yakunlandi.

Sadridin Ayniy ijodiy merosi xazinasida Alisher Navoiy haqida olib borgan izlanishlari va tadqiqotlari alohida o‘rin tutadi. Ayniyning navoiyshunosligi ma’lum bir evolyusiyasiga ega. Dastlab Sadridin Ayniy Navoiy ijodi haqida “Namunai adabiyoti tojik” (1926) tazkirasida ma’lumot keltirgan. Ushbu kitobning birinchi bobining 44-raqami ostida “Nizomiddin Amiri Alisheri Navoy” nomi ostida (Az Davlatshohiy) “Tuhfat ul-afkor” qasidasidan 13 bayt (26 misra) keltiradi. [8.80] Shuningdek, Jomiy

“

B  
a  
h  
o

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

a yuzasidan bahs borar ekan, Sadridin Ayniy 1926-yili tuzgan “Namunai adabiyoti tojik” tazkirasiga Navoiyni ham kiritib, uning faqat o‘zbek adabiyotining emas, balki fors-tojik adabiyotining ham buyuk namoyondasi ekanini ko‘rsatgan va yuqoridagi navoiyshunoslikdagi ulkan xizmatini xolis va to‘g‘ri baholagan edi. Tan olish kerakki, Sadridin Ayniy o‘sha davrdagi murakkab adabiy va siyosiy jarayonlarga qaramay yangi yo‘lida bir qancha ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordi. Chunonchi, 1938-yilda Navoiy tavalludining besh yuz yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko‘rilishi munosabati bilan “Mir Alisher Navoiy” nomli maqolasi “Tochikistoni Surx” gazetasining 1938-yil, 29-30-dekabr sonida; “Gazetai muallimon”ning 1939-yil, 1-9 yanvar sonlarida chop etiladi. Muallifning “Alisher Navoiy” degan batafsil yozilgan maqolasi esa 1941-yilda “Sharqi Surx” jurnalining bir necha sonlarida ketma-ket bosiladi. Ayniyning navoiyshunoslikdagi ulkan hissasi matnshunoslik bilan bog‘langan bo‘lib, 1940-yilda Alisher Navoiy “Xamsa”sini birinchilardan bo‘lib muxtasar, ommabop shaklda bosmaga tayyorladi, unga so‘zboshi hamda izohli lug‘at tuzib o‘sha yili lotin alifbosida nashr ettiradi. Bu kitob 1947-yilda ikkinchi marta kiril alifbosida chop etilishi esa o‘zbek madaniy va adabiy hayotida katta voqea bo‘ldi. “Alisher Navoiy va tojik adabiyoti” 1948-yili “Ulug‘ o‘zbek shoiri” to‘plamida bosilib chiqdi. [10. 198-210]

Aytib o‘tish joizki, o‘zbek tilida Navoiy hayoti yo‘li va ijodiyoti haqida yaxlit ma‘lumot beruvchi dastlabki monografiya Olim Sharafiddinov tomonidan yaratilgan va 1939-yilda bosilib chiqqan, keyinchalik muallifning rafiqasi Sharifa Abdullayeva tahriri ostida ancha to‘ldirilgan shakli 1971-yilda qayta nashr etilgan. [5] Kitobdagi so‘zboshi yaratilguncha: “Ilm va adabiyot ahllari bilan, ayniqsa, Sadridin Ayniy bilan yaqindan aloqa tutdi, ko‘rishib, xat yozishib turdi”. [5.5] Bu ilmiy asarning yaratilishiga beminnat ko‘mak va yo‘l-yo‘riq ko‘rsatib turgan, yosh iste‘dodlarni qo‘llab quvatlab, o‘z yordamini ayamaydigan, o‘ta sinchkov va iste‘dodni xolis baholovchi Ayniy tahsiniga sazovor bo‘ldi va unga manzur tushib muallifga quyidagi qizg‘in qutlov maktubini yozadi.: “Hurmatli o‘rtoq Sharafiddinovga. Men siz tomondan yozilgan Navoiy tarjimai holini diqqat bilan va zavqlanib o‘qib chiqdim. Sizni bu muvaffaqiyat bilan tabrik etishimga ruxsat bering. Bu tarjimai hol bu kungacha Navoiy to‘g‘risida yozilgan tarjimai hollarning eng to‘g‘risi, eng to‘lasi va eng mazmunligi deb, da‘vo etishga jurat qila olaman. O‘rtoqlik salomi bilan S.Ayniy. 20-mart, 1939 yil”. [7.407]

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Sadriddin Ayniyga “Alisher Navoiy” monografiyasi uchun 1948-yili filologiya xoslikka ega bo‘lib, unda keng qamrovdagi quyidagi masalalar yoritilgan:

Navoiy yashagan davri; Navoiy tarjimai holi; Navoiyning tug‘ilishi va uning avoiyning ilmiy adabiy va umuman omma manfaati yo‘lida solgan binolari, Alisher Navoiy va nafis sa’atlar; Alisherning kirim-chiqimi; Alisherning shaxsiy hayoti; Navoiy

ot navoiyshunoslikning ilk qadamlarida, 20-40-yillarda nihoyatda muhim ahamiyatga ega edi. Chunki bu davr navoiyshunosligida ko‘proq shoir haqida ma’lumot beruvchi ingliz turkologlarining xulosalari dasturilamal qilib olingan edi. Navoiy siymosini yaratishda ular eng ishonchli hisoblangan mutafakkirning o‘z asarlariga asoslanishning o‘rniga, uning asarlari haqida yozilgan izlanishlarning ham asliga emas, balki ko‘p hollarda tarjimasiga tayanishgandi. Ma’lumki, asl matndan yiroqlashgan sayin mazmun-o‘ziga murojaat qildi. mana shunday chuqur yondashuv samarasi sifatida navoiyshunoslikda burilish bo‘ldi. Shoirning asarlari maslagi va badiiyati haqidagi to‘g‘ri tahlillar barobarida shoir hayot yo‘li haqida ham aniq qarashlar paydo bo‘ldi.

Navoiyshunoslikdagi Ayniyning eng katta yutuqlaridan biri matnshunosligi va turkiy-forsiy lug‘atshunoslikning mohir sohibi ekanligida edi. Ustod ushbu tadqiqotni Xodamirning “Makorimul-axloq”, Mirxondning “Ravzat us-safo”, Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro”, ayniqsa, Vosifiyning “Badoe ul-vaqoe”si, Jomiy asarlariga va shu kabi ko‘pgina tazkiralarga, asoslangan. Sadriddin Ayniyning o‘rnakdir. Chunki u mavzuni atroflicha, yaxlit tarzda o‘rganishga harakat qilgan. olgan. Ma’lumotlar to‘plashda Ayniy hech qachon erinmagan. Uning olimona bu zahmati Navoiy xususidagi izlanishlarida bo‘rtib ko‘rinadi. Masalan, tadqiqotchi Navoiy yashagan davr haqida so‘z yuritayotib temuriylar saltanatining inqirozga yuz tutishidan biroz avvalgi holatini quyidagicha tasvirlaydi: “Husayn Boyqaroning saltanat davri ba’zi kasallarda bo‘ladigan “xonaravshan”ga o‘xshaydi. Odatda ba’zi bemorlar vafoti oldidan ko‘zini ochib, ikki-uch og‘iz gap gapiradilar yoki biror nars tanavvul qiladilar. Xalq bu holatni “xonaravshankuniy” deb ataydi. Biroq bu “xonaravshankuniy”ning charog‘i o‘sha davr hukumatining faol a‘zosi bo‘lmish Alisher

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

avoiiy edi” [7.231], - deydi. Ayniy kitobxon shuurida Navoiy yashagan davr, uning oilasi, qilgach, uning adabiy hayoti va ijodiga atroflicha to‘xtaladi. Chunonchi, “Navoiyning ona tili turkiy-o‘zbek tili bo‘lib, Navoiy zamoniga qadar va uning zamonida bu tilda yozilgan adabiy asarlar vujudga kelgan bo‘lsa ham, u vaqtda “o‘zbek tilida katta adabiy dostonlar va nozik falsafiy fikrlarni bayon qilish mumkin emas”, degan noto‘g‘ri nazariya mavjud edi. Navoiy bu nazariyani majaqlab tashladi...o‘zining muhim “o‘zbek” va o‘zbekcha terminlari hali umumlashmagan, keyinchalik Sirdaryo qirg‘oqlarida, Toshkent bilan Qazali o‘rtasida yashaydigan ana shu turkiy xalqlarning bir qismi o‘zbek va o‘zbekcha deyilgani haqida havolada izoh berib o‘tadi. Ta’kidlash dalillaydi:

*Forsiy bo‘ldi chu alarg‘a ado,*

*Turkiy ila qilsam ani ibtido.*

*Forsiy el topti chu xursandliq,*

*Turkiy dog‘i topsa barumandliq.*

O‘sha paytlarda Navoiyni bilmay turib uni taqlidchi deb atagan ba’zi sharqshunoslarga javoban: “...syujeti va dostonlarning ijtimoiy mazmuni jihatidan tamoman o‘zgacha asar yozdi, ya’ni Navoiy “Xamsa”si Nizomiy va Xisrav “Xamsa”larining tarjima yo taqlidi bo‘lmasdan, butunlay yangi va ijodiy asardir”, deydi. To‘g‘ri, bu mulohazalar yuqorida aytganimizdek, hozirgi zamon ilm ahli uchun oddiy yolg‘iz turib to‘g‘on bo‘lish va o‘zanini boshqa yoqqa burishdek gap edi. Navoiy “Xamsa” dostonlarini yozishdan avval shu mavzuda yozilganlarni tanqidiy nuqtai nazardan o‘rganib chiqadi. Ayniy mulohazasicha ulug‘ shoir asarlarning bor haqiqatga muvofiqligi va omma uchun qay darajada manfaatli ekanligi nuqtai nazaridan baholaydi. “Xamsa” tahliliga kirishgan Ayniy dostonlar qahramonlarini Navoiyning o‘z davriga monand muhokamaga tortadi. Jumladan, mehr-muhabbat, vafodorlik timsoli bo‘lgan, shuningdek, otasi taklif qilsa ham podshohlikni qabul qilmaydigan Farhodni Husayn Boyqaroning mansab uchun, toj-u taxt uchun o‘z otasiga qarshi bosh ko‘targan shahzodalarga qarshi qo‘ygannini ta’kidlaydi; kanizaklarigacha olima bo‘lgan xalqparvar va vafodor Mehinbonu va Shirinni Husayn Boyqaroning mashg‘ulotlari razolat, mamlakat vayronaligiga sabab bo‘ladigan ishlarni qilgan Hadichabegim singari haramiga qarama-qarshi qo‘yadi. Sheruya mulk “mahjubasi”ni qo‘lga kiritish uchun

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

otasi Ulug‘bekni o‘ldirgan Abdulatifning aynan o‘zi va shuningdek, Husayn Boyqaroni “taxt mahbubasini” qo‘lga kiritish uchun tayyor turgan o‘g‘illariga o‘xshatadi. Makr bilan mard Farhodni o‘ldirgan jodugar kampir Husayn Boyqaroning xotini va yoshi, insonparvar Mo‘min Mirzoni makr bilan o‘ldirgan Hadichabegimning xuddi o‘zi, deydi Ayniy. Xisravning vaziri Buzurgummid Majdiddin, Nizomulmulk va saroydagi boshqa a‘yonlarki, ular ham podshohni razolatga boshlaydilar. Bu kabi tahlillar monografiyada talaygina. Ayniy navbati bilan “Chor devon”, “Majolis un-nafois”, “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Xamsat ul-mutahayyirin” va boshqa asarlar haqida muxtasar ma‘lumotlardan so‘ng adibning fors-tojik tilidagi, muammo janri va amaliyoti haqida gapirilgan “Mufradot”iga alohida to‘xtaladi. Bir necha muammolarning tahlilini ko‘rsatib ushbu janr haqida o‘z mulohazalarini ham bildirib o‘tadi: “Muammo janri XV asr boshlarida chiqib, Alisherning tashabbusi bilan juda rivojlandi...Muammoning lug‘aviy ma‘nosi “biriktirilgan”, “yashirilgan” bo‘lib, istilohiy ma‘nosi tugal bir ochiq ma‘noga ega bo‘lishi bilan birga, biror atoqli ot chiqadigan maxsus ishoratlarga ham ega bo‘lgan she‘r yoki gap demakdir”. [7.333]

1939-yili Nizomiy va Navoiy yubileylariga bag‘ishlangan ilmiy anjuman qaroriga binoan, Navoiy asarlariga 4 tomli izohli lug‘at tuzish uchun navoiyxon va leksikograflardan iborat guruh tashkil qilingan. Uning tarkibida Mirza Abdullo Nasriddinov – Boqiy, shoirlardan Zokirjon Habibiy, Abdulahad Azizov –Anisiy, Mamatxon Is‘hoqov – Maxmur, shoir Chustiy, Sodiq Mirzayev, tilshunos Sobirjon Ibrohimov, Abulg‘ani Mutallibov va boshqalar bo‘lgan. Tilshunos Sobirjon Ibrohimovning xotirlashicha: “Navoiy lug‘atining I tomi (70 bosma varaq hajmida) qo‘lyozmasi tuzildi. Uni Ayniyning ko‘ruvidan o‘tkazish lozim bo‘ldi va Til va adabiyot instituti nomidan shu ishga yordam berishini so‘rab Samarqandga – Ayniy nomiga xat yozildi. Uning roziligi olindi. Qo‘lyozmaning bir nusxasini men Samarqandga oborib domlaga topshirib keldim. U qo‘lyozmani ko‘rib bir qancha qimmatli mulohazalari bilan bizga qaytardi” [4.45], - deydi. Ish jarayonida ba‘zi noaniq, bahsli masalalar chiqqanda Ayniy imkon topgan vaqtda borib tegishli maslahatlar bergan. “Ma‘nosi biz uchun noaniq, maslahatlashib ko‘rilishi lozim bo‘lgan so‘zlarni ba‘zan domla Ayniyga yozib yuborib, ma‘nolarini so‘rar edik”, - deydi S.Ibrohimov. “u kishi erinmasdan javob yozar edilar. Masalan: “Farhod va Shirin” dostonidagi:

*Biri har dam yo‘nib yuz nav‘i xora,*

*Ki qilgay havz yo farshu izora, -*

Baytida ishlatilgan “izora” so‘zi ustida ko‘p kelishmovchiliklar va tortishuvlar bo‘ldi. Shunda Sadriddin Ayniyga murojaat etdik “Izora” so‘zi, - deb yozgan edi Ayniy, - bu uy ichida tokchadan pastki qismiga tushirilgan gul demakdir”. [4.45] Afsuski, urush

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

tufayli ko‘p o‘tmay lug‘at tuzuvchi guruh tarqatiladi, I tom qo‘lyozma bosilmasdan qoladi. [9]

Navoiy “Xamsa”si ilk bor Sadridin Ayniy tomonidan 1939-yili nashrga tayyorlagan va 1940-yili lotinlashtirilgan o‘zbek alifbosida chop etilgan. “...Bu nasxani tartibga solishda har bir doston va bo‘limlaridan xarakterli bo‘lgan parcha va misralarni terib oldim, - deydi olim, -...tushinilishi qiyin bo‘lgan ayrim so‘zlarga lug‘atcha tuzdim. Shu tanlanma nusxada duch kelgan ayrim tarixiy nomlar uchun ham qisqa tarjimai hol yozdim”. [2.11] Ushbu ilk nashrda “Xamsa”ning XV asrda ko‘chirilgan nusxalari Ayniy qo‘lida bo‘lmaganligi sababli keying asrlarga oid qo‘lyozmalar asosida ishlagan edi. Lekin keyinchalik “Xamsa”ning XV asrda, Navoiyning hayot vaqtida ko‘chirilgan ikki nodir nusxasi topilgan. Bular Hirotning atoqli xattotlaridan Abduljamil kotib (1484-yilda) va Sultonali Mashhadiylar tomonidan (1492/93 yilda) ko‘chirilgan. Ayniy 1947-yil shu qo‘lyozmalarga asoslangan holda “Xamsa”ning ikkinchi nashrini tayyorlaydi. [3] Unda solishtirishlar asosida oradagi farqlar tuzatiladi, sharhlar ko‘p o‘rinlarda ixchamlashtiriladi va Navoiy yubileyi oldidan qayta nashr etiladi. Bu kitobni Porso Shamsiyev, Sobirjon Ibrohimov va Solih Mutallibovlar tahririy jihatdan ko‘rib chiqib, bosmaga tayyorlashadi. Keyinchalik Ayniyning noshirlik ishini davom ettirib Navoiy haqli iqrorini keltiradi: “S.Ayniy “Xamsa” dostonlarini mohirlik bilan qisqartirib, qisqargan joylarini nasriy yo‘l bilan bezatdi. Shu bilan muxtasar “Xamsa”ni elga manzur qildi”. [6.82]

Xullas, Sadridin Ayniy navoiyshunoslik borasida chekkan zahmatlari, qo‘shgan hissasi bilan ushbu sohaning endigina unayotgan niholiga abadiyat suvini quyib yashnashiga katta xizmatlar qildi.

## Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abduqodir Hayitmetov. Zabardast Navoiyshunos // “ O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali. 2003-yil №5.
2. Alisher Navoiy. Xamsa. –Toshkent. O‘zpoligrafkombinat. 1940-y.
3. Ayniy zamondoshlar xotirasida. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. – Toshkent. 1978-yil. 45-bet.
4. Sharafiddinov O. Alisher Navoiy. G‘afur Gulom nashriyoti. –Toshkent: 1971-yil.
5. Rahmonova Z. Navoiyshunoslik manzillari. –Toshkent. 2023-yil.82-bet.
6. S.Ayniy. Asarlar. 8-tom. G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. – Toshkent. 1967-yil. 231-bet.
7. Sadridin Ayniy. Namunai adabiyoti Tojik. –Душанбе: “Адиб”, 2010. Саҳ-80.
8. Sobirjon Ibrohimov va Porso Shamsiyev tayyorlagan “Navoiy asarlari lug‘ati”1972 yilda G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyotida bosilib chiqqan.

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

9. Ulug' o'zbek shoiri.// maqolalar to'plami (Oybek tahriri ostida). –Toshkent: 1948-y. 198-210 sahifalarda.
10. Чомӣ Абдурахмон. Баҳористон. –Душанбе: “Адиб”, 1987. саҳ.-125.
11. Asadov, M. (2021). A PERFECT EXAMPLE OF ALISHER NAVOI'S POETRY. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(12), 1461-1465.
12. Maqsud, A. (2020). ANOTHER PECULIARITY IN THE COMPOSITION OF NOMAS. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 9(12), 62-65.